

Oliy maktab rasmiy (tashqi) saytiga ma'lumotlarni joylash xususida

1. Flayer-bukletga oid ma'lumot

O'zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi xodimlari va tadqiqotchilari tomonidan xorijga chiqayotgan fuqarolarga mo'ljallangan diniy veb sahifalardan samarali foydalanish bo'yicha flayer – buklet shaklidagi qo'llanma tayyorlandi va O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining ijobiy xulosasi olindi.

Mazkur qo'llanma xorijda vaqtincha yashab mehnat qilayotgan hamda talabalarda uchraydigan diniy-ma'rifiy savollarga javob topish, turli radikal g'oyalar ta'siriga tushib qolishning oldini olish, xorijdagi diplomatik vakolatxonalar bilan bog'lanish imkoniyatini beradi.

Foydalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida flayer-bukletning Safar Uzbekistan mobil ilovasi ham ishlab chiqildi (bukletning birinchi sahifasida elektron manzili va QR kodi qayd etilgan).

Shu munosabat bilan, ushbu qo'llanmani oliy maktab tashqi saytiga joylashtirish rejalashtirilmoqda.

2. Seminar-trening va monitoring tadbiri haqida ma'lumot

Oliy maktab mustaqil izlanuvchilarning ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini yanada oshirishga bag'ishlangan **“Milliy manfaatlarni ta'minlash yo'nalishida ilmiy tadqiqot olib borish: zamonaviy talablar va muammolar”** mavzusidagi seminar-trening va monitoring tashkil etildi.

Seminar-treningni tashkil etishdan maqsad Oliy maktab tadqiqotchilarining ilmiy ishlarini samarali tashkil etishlarida amaliy hamda ilmiy-uslubiy ko'mak ko'rsatish, ularning tadqiqot olib borish bilan bog'liq savollariga javob berish hamda zamonaviy ilmiy tadqiqot ishlariga qo'yilayotgan talablar va imkoniyatlar bilan tanishtirishdan iborat. **Monitoringdan** kutilgan maqsad esa, tadqiqotchilarni ish rejalaridagi bandlarni o'z vaqtida sifatli bajarilish holatini o'rganish, tahlil natijalaridan kelib chiqib tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadbirda respublikaning yetakchi mutaxassis-olimlari, STIBOM professor-o'qituvchilari, mustaqil izlanuvchilar va tinglovchilar ishtirok etishdi.

Seminar-treningda professor **Yusupov A.T.** (*Oliy attestatsiya komissiyasi Raisi*), professor **Xudoyqulov X.X.**, dotsent **Zikriyoyev A.S.** (*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ekspert-olimlari*).

Ma'ruzachilar tomonidan quyidagi mavzularda taqdimotlar qilindi:

- 1) **“Ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlashga oid davlat siyosati: zamonaviy talablar”**;
- 2) **“Ilmiy tadqiqot olib borishda sun'iy intellektdan samarali (to'g'ri) foydalanish muammolari”**;
- 3) **“Ilmiy maqolalarga zamonaviy talablar: akademik halollik”**.

Shundan so‘ng, savol-javoblarga navbat berildi. Ma‘ruzachilarga ishtirokchilar tomonidan ko‘plab savollar berildi va savollarga aniq va sifatli javoblar berildi, bahsli masalalarga oydinlik kiritildi.

Seminar-trening doirasida **“Kunning dolzarb beshligi: tavsiyalar, muammolar, savollar”** mavzusida Oliy maktab huzurida tashkil etilgan ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash a‘zolari va tadqiqotchilar o‘rtasida **jonli muloqot** (davra suhbat) o‘tkazildi.

Davra suhbatida dissertatsiya ishi muhokamalaridagi “trend” savollar, izlanuvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilayotgan tizimli kamchiliklar yuzasidan taklif va tavsiyalarni berildi.

STIBOM mustaqil izlanuvchilarga dissertatsiyani attestatsiyadan o‘tkazish jarayoni bilan bevosita tanishishlari uchun dissertatsiya ishi kafedralararo muhokamasi tashkil etildi. Barcha qatnashchilar dissertatsiya ishi kafedralararo muhokamasi jarayoniga va unda beriladigan savollarga guvoh bo‘lishdi.

Seminar-treningdan so‘ng kunning ikkinchi yarmida STIBOM mustaqil izlanuvchilarining monitoringi bo‘lib o‘tdi.

Yuqoridagi ma‘lumotlar yuzasidan Oliy maktab doimiy komissiyasining nomaxfiylik haqidagi xulosasi olindi va O‘quv-uslubiy kengashda muhokama etilib ma‘qullandi.

Ilmiy bo‘lim